XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

2022 - yil 1 - dekabr VI-58-246-9-125-K/22 Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tumani hududidagi 3 ta qabristonlarni nomlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining talablaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 19-oktabrdagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Mirzaobod tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mirzaobod tumani hokimligining 2022-yil 11-noyabrdagi 4/04-96-sonli xati hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2022-yil 19-oktabrdagi “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlariga talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi ijro va ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hududidagi nomlangan 3 ta qabristonlar nomlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi huzuridagi geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha komissiya a’zolari, tuman hokimi o‘rinbosari R.Anorboyev, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (G‘.Usmonov), tuman hokimligi obodonlashtirish

boshqarmasi (B.Sariboyev):

- bir hafta muddatda nomlar o‘zgargan geografik obyektning nomlarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib etish;

- belgilangan tartibda zamonaviy ko‘rinishda, lotin yozuvida, peshlavhalarga yozib o‘rnatish ishlarini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilasin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Xolqo‘ziyev), tuman ichki ishlar bo‘limi (B.Shodiyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (D.Jumayev), tuman statistika bo‘limi (E.Nishonov), tuman moliya bo‘limi (I.Sattorov), tuman kadastr agentligi (B.Raximov) va tegishli mutasaddi tashkilot rahbarlariga:

- mazkur qaror asosida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarni e’tiborga olgan holda tegishli idoraviy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (O.Nomozov)ga mazkur qarorni ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinishi tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror bilan bog‘liq hujjatlar geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasiga taqdim etilsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari, komissiya raisining o‘rinbosari R.Anarbayev va Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (F.Abdurazakova) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **J.Yariyev**

Xalq deputatlari Mirzaobod tuman
Kengashining
2022 yil 1 dekabrdagi
VI-58-246-9-125-K/22-son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumani hududidagi yangi nom beriladigan 3 ta qabristonlarning ro‘yhati

№	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspert komissiyasining xulosasi
1.	Qabriston	Oydin MFY	Nomsiz	Minor	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
2.	Qabriston	Dehqonobod MFY	Nomsiz	Mangulik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq
3.	Qabriston	Bog‘iston MFY	Nomsiz	Farg‘onalik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq